



Gazeta 1956 yildan  
chiqa boshlagan

# Bilim - taraqqiyot negizi

# Agro nom

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI GAZETASI

2016 yil Mart 3 (753)

*Siz e'zoz-u, ardoqlarga loyiqsiz!*

## UNIVERSITET REKTORI, PROFESSOR B.A.SULAYMONOVNING BAYRAM TABRIGI.



**Assalomu alaykum  
muhtarama onaxonlar!  
Qadrli opa-singillar.**

Ko'klam – uyg'onish, yangilanish fasli. Uning tafti nafaqat tabiat, balki ko'ngillarga ham g'ayratu shijoat baxsh etadi. Ana shunday kunlarda sizlarni "8 mart – Xotin-qizlar kuni"

bayrami bilan qizg'in tabriklab, sizlarga o'zining samimiy tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Ayol haqida so'zlaganda avvalo ko'z oldimizga mo'tabar, nurli siymo munis onalarimiz, ko'ngilga yaqin opa-singillarimiz keladi. Ularni alohida e'zozlashni eng sharaflı burchimiz deb bilamiz. Negaki, ayolni e'zozlagan erkak baxtli bo'lishi, ayolni hurmat qilgan millat kam bo'lmasligini biz barchamiz yaxshi bilamiz.

Bugun mamlakatimizda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda Yurtimizda 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2014 yil "Sog'lom bola yili", 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi zamirida ham ayollarga nisbatan g'amxo'rlik mujassam.

Muhtaram Prezidentimiz "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli kitobida ayollarni go'zallikda tengsiz ekanligi haqida to'xtalib "Odatda, biz go'zal

degan so'zni ko'p ishlatamiz. Har kim bu so'zning mazmun-mohiyatini o'zicha tushunadi. Lekin go'zal deganda men avvalombor, ayollarni tushunaman. Agarki, shoir bo'lsam, sizlarga atab, albatta, eng go'zal she'rni yozgan bo'lardim, va agar ayollar uchun, ularga alohida e'tibor qaratishimiz uchun bayram bo'lmaganda, uni, albatta, o'ylab topishimiz kerak bo'lar edi." – deb ayol eng ulug' zot ekanligini yana bir bor ta'kidladilar.

Bugun tinib-tinchimas o'zbek ayoli – Senat a'zosi, rahbar, san'atkor, tadbirkor, shifokor, o'qituvchi, fan arbobi, jahon chempioni, oila tayanchi va barkamol avlodning ulug' onasidir. Bugun ozod va obod yurtimizning barcha sohadagi dadil qadamida, erishayotgan olamshumul yutuqlarida xotin-qizlarning munosib hissasi bor. Ularga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rlik hamda yuksak e'tibor tufayli mamlakatimiz ayollarining jamiyatdagi mavqei va nufuzi yuqori darajada.

Toshkent davlat agrar universitetida faoliyat yuritish bilan birgalikda mukarram onalik sharafi, latofatli va nazokatli ayollik baxtiga, to'kis bekalik saodatiga erishgan onaxonlarimiz va opa-singillarimiz uchun bayram tuhfasi sifatida tashkil etilgan tadbirda berilgan imkoniyatdan foydalanib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman. Farzandlaringiz va yaqinlaringiz, elu yurtimiz baxtiga omon bo'ling. Hamisha nurli yuzingizdan tabassum, pok qalbingizdan mehr arimasin.



## БАХТИМ ШУЛ – ЎЗБЕКНИНГ ЗУЛФИЯСИМАН!

2016 йил 2 март куни Тошкент давлат аграр университетиди Ўзбекистон халқ шоири Зулфия таваллудининг 101 йиллиги муносабати билан “Севги ва садоқат куйчиси” мавзусида тадбир ўтказилди

Бетакрор истеъдодли, Ватанга муҳаббат, вафо ва садоқат туйғусини, олижаноб инсоний фазилатларини юксак пардаларда тараннум этган етук бадиий асарлари, ибратли ҳаёти ва ижтимоий фаолияти билан миллий адабиётимиз ва маданиятимиз ривожига, халқимиз маънавиятини юксалтиришга улкан ҳисса қўшган Ўзбекистон халқ шоири Зулфия таваллудининг 101 йиллигига бағишлаб қатор маънавий-маърифий тадбирлар ўтказилмоқда.

2016 йил 1 март куни ўтказилган олий таълим муассасалари ижодкор ёшларнинг видеомулоқоти ана шундай тадбирлардан биридир. Ушбу мулоқотда иштирок этиш учун Тошкент давлат аграр университетининг Ахборот ресурс марказида тўпланган университет номдор стипендиялар соҳибалари, иқтидорли талаба-қизлари ҳамда Тошкент вилояти ижодкор ёшлари тадбирдан катта таассуротлар олди.

2016 йил 2 март куни Тошкент давлат аграр университетиди Ўзбекистон халқ шоири Зулфия

таваллудининг 101 йиллиги муносабати билан “Севги ва садоқат куйчиси” мавзусида тадбир ўтказилди.

Унда Тошкент вилояти Оила илмий – амалий маркази раҳбари Ш.Абдужалилова, университет Хотин-қизлар қўмитаси раиси Д.Халикова, университет ва Қибрай академик лицейи профессор-ўқитувчи ва талабалари иштирок этдилар.

Тадбирда шоира ҳаёти ва ижоди, Мустақиллик йилларида шоира ижодини ўрганишга бўлган эътибор, 1999 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони билан “Зулфия” номидаги давлат мукофоти таъсис этилганлиги, шундан буён

ҳар йили Республикаимиз шаҳар ва вилоятларидаги мактаб, академик лицей ва касб-хунар коллежлари ҳамда олий ўқув юр்தларининг ҳар жихатдан иқтидорли ижодкор қизлари ушбу мукофот билан тақдирланиб келаётганлиги ҳақида гапирилди, шеърларидан намуналар ўқилди.



## O‘ZLIKNI ANGLASH BAXTI

Toshkent davlat agrar universitetida “Kecha kim edigu bugun kim bo‘ldik?”

Ertaga qanday marralarni egallashimiz kerak?” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Ushbu tadbirda Universitet ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha prorektori A.Abduvasikov, Toshkent iqtisodiyot universiteti professori Bekdavlat Aliev, shoir Botir Ergashev, teatr aktyorlari Hamza Xasanov, Mirshod Mardonov, xonanda Ulug‘bek Raxmatullaev, Toshkent shahar Yunusobod tuman hokimiyati Madaniyat bo‘limi xodimlari, Universitet ma’naviyat-ma’rifat va iqtidorli yoshlar bilansh ishlash bo‘limi xodimlari, universitet Хотин-қизлар қўмитаси, “Kamolot” YOIH a‘zolari hamda universitet talabalari ishtirok etishdi.

Tadbirni kirish so‘zi bilan ochgan Universitet ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha prorektori A.Abduvasikov mamlakatimizni siyosiy va iqtisodiy rivojlantirish, jumladan, ijtimoiy sohalar – ta’lim-tarbiya, ilmu fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at, sport tizimini rivojlantirish maqsadida katta islohotlar olib borilayotganligi, jamiyatimizda ayollar, keksalar va yoshlarning o‘rni, ularga yanada qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida gapirdi.



Mustaqillik haqida to‘xtalib, Mustaqillik biz uchun avvalo o‘zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz-avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g‘urur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib bergani haqida gapirdi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori Bekdavlat Aliev so‘zga chiqib, bugungi yoshlarning Vatanga mehr va sadoqati, avvalo, chuqur bilim olishi, o‘z kasbining mohir ustasi, hayotga har tomonlama tayyor bo‘lib, yuksak cho‘qqilarni ko‘zlab yashashi, ilm-fan, kasb-hunar, sport va san‘atga muhabbati va

shu yo‘ldagi yutuqlarida namoyon bo‘lishi haqida gapirdi.

Yoshlarning xalqimiz, Vatanimizga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday tahdidan ogoh bo‘lib, ularning oldini olish uchun vaqtda bong urib, ularga qarshi qat‘iy kurashib, jonbozlik ko‘rsatish ham Vatanimiz taraqqiyotiga, uning mustaqilligini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi bo‘lishini alohida ta’kidladi.



Tadbir mehmonlari: teatr aktyorlari Hamza Xasanov, Mirshod Mardonov, shoir Botir Ergashev hamda xonanda Ulug‘bek Raxmatullaevlar tomonidan ijro etilgan she‘r, kuy va qo‘shiqlar yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

## HAMKORLIK

## TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETIGA YAPONIYA QISHLOQ, O'RMONCHILIK VA BALIQCHILIK XO'JALIGI VAZIRLIGI VAKILLARI TASHRIF BUYURISHDI

2016 yil 16 mart kuni Toshkent davlat agrar universitetiga Yaponiya Qishloq, o'rmonchilik va baliqchilik xo'jaligi vazirligi vakillari tashrif buyurishdi. Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston va Yaponiya davlatlarining qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorligini

yanada mustahkamlash. Delegatsiya a'zolari universitet hududi va tajriba xo'jaligida so'nggi yillarda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.



## TINCHLIK – OLIY NE'MAT

2016 yilning 17 mart kuni Toshkent davlat agrar universitetida diniy ekstremizm, messionerlik va uning zararli oqibatlarini keng yoritish hamda talabalar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbir davomida universitet Ma'naviyat va ma'rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi xodimlari, "Kamolot" YOIHBT a'zolari, professor-o'qituvchilari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovinnalari, kafedra mudirlari hamda 280 nafardan ortiq talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Kun tartibidagi mavzu yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita mas'ul xodimi J.Jo'raev, Rus Pravoslav Cherkovi diniy seminaris dotsenti Oleg Stepanovich Shkvorodiyuk, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan birlashtirilgan mas'ul xodim X.Eshov hamda TDAU Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha

prorektori A.Abduvasikovlar ma'ruza qildilar.



Tadbir davomida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita mas'ul xodimi J.Jo'raev diniy ekstremistik oqimlar va terrorchilik tashkilotlari tomonidan dunyo hamjamiyatiga yetkazilayotgan talofotlar yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar oldida turgan global muammolardan biri ekanligini aytdi. Islom dinini niqob qilib manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'or yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanayotganligi,

diniy aqidaparastlik va terrorizm haqida hamda jamiyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan boshqa turli illatlar va ularning oqibatlari, ularga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berdi.

Shuningdek, ma'ruzachilar tomonidan yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik oliy ne'matligi, har bir ishga ongli ravishda yondashish kerakligi, buning uchun esa ilm va tafakkur boyligi, ma'rifat va milliy qadriyatlarini chuqur egallashga intilish lozimligi, kun sayin kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash zarurligi, turli va'dalarga ishonib aldanib qolmasdan, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga o'z hissasini qo'shish, halol mehnat qilishga odatlanish, kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishga harakat qilish bugungi yoshlarning asosiy vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlandi.

Tadbir davomida "Fitna" nomli videofilm namoyish etildi. Tadbir qizg'in tarzda o'tib, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga ma'ruzachilardan batafsil javob olishdi.

## HAR KUNING BO'LSIN NAVRO'Z!

Fasllar ichida bahor o'z ko'rkli va tarovati bilan tabiat go'zalligining eng nozik jihatlarini o'zida aks ettirsa, bayramlar ichida Navro'z inson ko'ngliga yasharish hissini baxsh eta olish mo'jizasi ila ajralib turadi. Shu sabab insonlar uni intiqlik bilan kutishadi. Yurtimizning har bir go'shasida bu ayyom azaliy qadriyat sifatida keng nishonlanadi.



Toshkent davlat agrar universitetida ham ko'ngillar sog'ingan Navro'z bayrami tantanali tarzda nishonlandi. Universitet jamoasi tomonidan "Universitet stadioni"da bayram sayli tashkil etildi. Har bir xodim va talabalar yuzidagi quvonch bu nafosat ayyomining ishq va mehridan nishona.



Xalqimiz suygan san'atkorlar tomonidan bayram konserti namoyish etildi. Barcha fakultetlar o'zlariga ajratilgan hududlarda Navro'z taomlari ko'rgazmasini hamda xalq o'yinlari, milliy

qadriyatlar namoyishlarini tashkil etishdi.



"Bugungi bayram dasturi men singari universitetimizning barcha professor - o'qituvchilarini qalbiga o'zgacha hushnudlik baxsh etayapti, desam mubolag'a bo'lmaydi. O'zimiz tayyorlagan milliy taomlar bayram dasturxonini bezab turibdi. Meni yana bir quvontirgan narsa bilim olish bilan birga ko'plab talabalar o'z ijodiy mahoratini ham namoyon etishmoqda. Ayniqsa, milliy va boshqa millat raqslarini qoyilmaqom qilib ijro etishlari tahsinga sazovor" deydi Manzarali bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish kafedrasini o'qituvchisi Shohista Xolova.



Jismoniy madaniyat va sport kafedrasini tomonidan kurash, tosh ko'tarish, armresling, arqon tortish bo'yicha musobaqalar va ko'rgazmali chiqishlar tashkil etildi.

Talabalar tomonidan tashkil qilingan tasviriy san'at, amaliy san'at hamda gullar, shifobaxsh

o'tlardan damlangan choylar ko'rgazmalari saylga chiqqanlarda katta qiziqish uyg'otdi.



"Universitetimizda keng nishonlanayotgan go'zallik va yangilanish bayramida men va do'stlarim o'z ijod namunalarimiz bilan qatnashmoqdamiz. Tengdoshlarim chizgan rasmlar, yasagan buyumlar barcha ishtirokchilarni o'ziga jalb etayotganligini meni quvontiryapi" dedi Agronomiya fakulteti 2-46 guruh talabasi Elbek Ashurov.



Bayram dasturidan lapar aytish, she'riy aytishuvlar singari milliy an'analar ham namoyish etildi. Shuningdek, universitet jamoasi hamda bayram qatnashchilariga osh va sumalak tayyorlab tarqatildi.

Sayl ishtirokchilarining yuzko'zlaridagi quvonchni ko'rib "Hush kelding, yurtimga Navro'z. Umring boqiy bo'lsin!" deb baralla aytgimiz keldi.

*Dilfuza Mahkamova.*

## QADRIYAT

**НАВРЎЗИ ОЛАМ – ШАРҚОНА ЯНГИ ЙИЛ**

Наврўз қадимий миллий байрами ("Наврўз байрами") форс тилидан таржима қилинганда "янги кун" маъносини англатади. Наврўз байрами 21 март куни нишонланади ва янги йилнинг бошланиши ҳисобланади. Ушбу кун кеча билан кундузнинг тенглашган пайтидир.

Кеча ва кундузнинг бир хиллиги - 12 соат. Ер бутунжаҳон астрономик тенглашган даврига кириб келади. Яна шу даврда яримшар бўйича йил фасллари ўзгариб туради, агар жанубий яримшарда куз келса, шимолий яримшарда эса - баҳор. Ушбу байрам барча ўсимликлар ва дарахлар гуллаганда ва баҳор тусига кирган вақтда нишонланади. Ушбу байрамнинг кириб келиши билан кўпгина Ўзбек оилалари турли миллий таомларни тайёрлайдилар: Сумалак, Халим, Кўк сомса, Ош ва бошқалар. Мазкур таомлар инсон организмига фойдали бўлган кўп витаминларга бойдир.

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг Ўзбек халқининг қадимий урф-одатлари ва анъаналари кучга кирди, жумладан Наврўз байрамини нишонлаш ўзга хос тусга эга бўлди. Бу байрам барча халқларнинг дўстлик ва бирлик рамзига эга бўлган умумхалқ байрамидир. Ҳозирги кунда Наврўз байрами пойтахтимизнинг Алишер Навоий номи майдонида ва барча ҳудудларда кенг нишонланмоқда.

Наврўз - меҳр-мурувват, инсонпарварлик, инсонларни руҳан бирлаштирувчи байрамидир. Барча замонларда Наврўз орқали халқнинг маънавий дунёси намоёниш этилган, турмуш тарзи, орзу-ўйлари, гўзалликка, нафосатга бўлган муносабатлари ифодаланган. Ушбу ҳосиятли байрамни нишонлашнинг ўзига хос томонлари мавжуд бўлиб, улар даврлар ўтиши билан мазмунан бойиб, такомиллашиб келмоқда. Наврўз байрами муносабати билан мамлакатлараро уруш-жанжаллар тўхтатилган, урушганлар ярашган, гина-қудратлар унутилган, ота-она, қариндош-уруғлар, кексалар, касалмандлар совға-салом билан йўқланган, янги кийимлар кийилган, турли-туман Наврўз таомлари тайёрланган, уй, ховли, кўчалар супуриб-сидирилган, катта-катта майдонларда сайиллар, ўйин-кулги, аскиябозлик, кўчкор, хўроз уруштириш, кураш, кўпкари ўтказилган, театр томошалари ташкил этилган. Одамлар бир-бирлариникига меҳмондорчиликка боришган, ерга биринчи уруғ қадаш, қўш қўшиш, шох мойлаш маросимлари нишонланган. Хуллас, Наврўз байрами миллий умумхалқ байрами сифатида жуда катта тайёргарлик ва шоду хуррамлик билан ўтказиб келинган. Унинг мазмунида ким Наврўзни шоду хуррамлик билан кутиб олса ва ўтказса, келгуси йил Наврўз келгунча унинг ҳаёти хурсандчиликларга бой бўлади деган ғоя ётади. Наврўз – меҳнат байрамидир. Бу кун деҳқон ер чопиб, экин экиб, деҳқончилик фаолиятини бошлайди. Наврўз меҳр-окибат, инсонпарварлик байрамидир. Бу кун марҳумларнинг қабрлари зиёрат қилинади, кекса, ногирон, ёлғиз қариялар, ота-оналар йўқланади, байрам дастурхони ёзилиб, меҳмон кутилади, кишилар бир-бирларига совға-саломлар улашиб ширинликлар ҳадя этишади. Наврўз - муҳаббат, севги, садоқат байрами. Наврўз муносабати билан никоҳ тўйлари ўтказилган, йигит-қизлар бир-бирлари билан ахду паймон қилишган, гуллар ҳадя этишган. Янги тушган келин кўлидан чой ичиш мақсадида "келин кўрди"га боришган. Наврўз байрами бир кундан бир ойгача

нишонланган бўлиб, уни тантана қилиш билан боғлиқ турли урф-одатлар, удумлар, расм-русумлар авлоддан-авлодга ўтиб келмоқда. Бу байрам тантаналари олдида ховлилар тозаланган, уйдаги кўрпа-ёстиқ, дераза-эшик пардалари, гилам-поёндозлар ювилиб, хонадон саранжон-саришта этилган. Маҳаллалар, кўча ва боғлар ҳашар йўли билан обдонлаштирилган, ариқ-зовурлар, қабристонлар, тарихий обидалар тозаланган.

Уч минг йилдан зиёд тарихга эга бўлган Наврўзи олам – шарқона янги йил ўзининг янгиланиш, баҳор нафасини бошлаб келиши, халқимизнинг табиати, онгу тафаккури, қалби-шуурига чуқур сингиб кетгани, ҳар қайси оила, ҳар қайси хонадонга шоду хуррамлик олиб кириши билан биз учун энг қадрли, азиз ва суюкли миллий байрамидир. Бу дилбар фаслда диёримизда яшаётган ҳар бир инсон ён-атрофимиздаги табиатнинг нақадар ранг-баранг ва гўзал, қандай бетакрор ва жозибали эканини беихтиёр яна бир бор ҳис этади. Офтоб ерни қиздириб, куртаклар очилиб, борлиқ уйғониши билан одамзотнинг қалби, баҳри дили ҳам очилиб, унинг вужуди, қон-кони, суяк-суягига янги куч-қувват, ғайрат ва азму шижоат кириши табиийдир. Бу шукуҳли айёмда ёшу қари, ҳар қайси инсон ўзини мўжизакор табиатнинг узвий бир қисми эканини чуқур англайди, табиий муҳитни асраб-авайлаб, у билан ҳамоҳанг бўлиб, бу осуда ҳаётнинг ҳар бир кунининг қадрига етиб яшаш кераклигини яна ва яна бир бор идрок этади. Бу қутлуғ яшариш палласида еру кўк бағрида рўй бераётган ўзгаришларни қалбидан ўтказаяётган одамларимизнинг дилларида қувонч, тилларида шукроналик хисси пайдо бўлади. Шу мунаввар кунларда ҳар қайси инсон вужудида яқинларига меҳр-окибат кўрсатиш, табаррук қарияларимизнинг дуосини олиш, етим-есирларнинг бошини силаш, бемор ва муҳтож одамларга беминнат ёрдам ва қўмак беришдай савобли, барчамизнинг юрак-юрагимизга сингиб кетган туйғулар ўзини ёрқин намоён этади. Айнан мана шундай халқимизга мансуб фазилятлар, бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат каби олижаноб қадриятлар одамларимизнинг онгу тафаккурида мустаҳкамланиб, уларнинг эртанги кунга ишончи тобора кучайиб бораётгани жамиятимизнинг бугунги сиёсий-ижтимоий муҳитини ифода этаётганини кузатиш қийин эмас. Айнан мана шундай маънавий иқлим охириги йилларда мамлакатимизда қўлга киритилаётган, ўзгаларнинг ҳавасини тортаётган ютуқ ва марраларга эришишда, эркин ҳаёт ва демократик жамият куришда, ҳеч шубҳасиз, энг кучли замин ва гаров бўлиб хизмат қилмоқда, десак, ҳақиқатни айтган бўламыз.

Халқимизда "Яхши одам – кўзидан, яхши йил – Наврўзидан маълум" деган чуқур мазмунли мақол бор. Бу йилги Наврўзимизнинг ҳар томонлама ҳосиятли, қутлуғ қадамлар билан бошланаётганига ҳаммамиз гувоҳ бўлиб турибмиз. Шу кунларда Ватанимизнинг бепоён ҳудудларида, шаҳар ва қишлоқларида, сўлим гўшаларида Наврўз сайилларини кексаю ёш – барча юртдошларимиз катта хурсандчилик ва баланд руҳ билан ўтказаяётгани бунинг яққол дарағи ва тасдиғидир. Барчамизнинг тилагимиз – Яратганимизнинг ўзи эл-юртимизга, ҳар бир оила, ҳар бир хонадонга файзу барака, бахту саодат берсин, дастурхонимизни тўқин, ризкимизни бутун қилсин.

*Б.Б. Сапаров,*

*ТошДАУ Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси.*

*Г.Пўлатова,*

*ТошДАУ Зоотехния факультети 2-94 гуруҳ талабаси*

## ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ ЮРАК МУШАКЛАРИНИНГ НОБУД БЎЛИШИНING ПРОФИЛАКТИКАСИДАГИ АҲАМИЯТИ

Қадимдан маълумки, жисмоний тарбия сиҳат–саломатликнинг гаровидир. Бу масалада, грек файласуфи Аристотельнинг “Ҳеч нарса одамни узоқ давом этадиган жисмоний ҳаракатсизликча ҳолдан тойдириб, хароб қилмайди”, деган сўзларини эслатиб ўтиш фойдадан ҳоли бўлмайди. Шу боисдан ҳам шифокорлар беморлар билан бўлган мулоқот чоғида кўп йиллар мобайнида “Сизларнинг касаллигининг асосий сабабларидан бири, у ҳам бўлса, мушакларингизни етарли даражада машқ қилдирмаганингизнинг натижасидир”, деб айтишади.

Айрим кишилар танлари соғлом пайтларда ўзини тетик ҳис қилиб, “ҳар қандай ишга қодирман”, деб ўйлашади ва жисмоний машқлар билан мунтазам равишда шуғулланишга эҳтиёж сезмайдилар. Аммо шундай кун келадими, бундай бепарволикнинг жазосини тортиш пайти намоён бўлади ва одамнинг айрим аъзосининг фаолияти издан чиқади. Шундан сўнг бу кимса унинг тинчлигини бузилишига сабаб бўлаётган шикоятлар билан шифокорга мурожаат қилади. Масалан, юрак соҳасида оғрик пайдо бўлиши мумкин.

Кейинги йилларда амалга оширилган илмий изланишлар шуни кўрсатдики, жисмоний тарбия машқлари билан мунтазам равишда шуғулланган кишилар орасида, мазкур ҳаракатларга бепарволик билан муносабатда бўлганларга нисбатан касалликлар кам бўлиб, улар шифокорларга 2–4 марта кам миқдорда ёрдам сўраб мурожаат қилишади. Бунинг тасдиғи тарихида спорт билан шуғулланувчи

талабалар, бундай машқлар билан шуғулланмаганларга нисбатан 27 фоиз даражасида кам касал бўлишини айтиш жоиздир. Бу каби фарқ, айниқса нафас ва юрак – қон томири тизимлари касалликларида айтарли даражада юқоридир.

Тиббиёт илми ва амалиётининг отаси, деб ҳисобланадиган юнон олими Гиппократ жисмоний машқларнинг сиҳат–саломатликни сақлашдаги аҳамияти ҳақида образли қилиб, “Мовутни сифатли қилиш ишлаш учун кишилар уни намотни босгандек оёқлари билан топтайдилар, тозалайдилар савалаб титишади, ювишади, ифлосдан тозалаб уни пиштайдилар. Мовут ҳақидаги бу гапларни танамизга тадбиқ этишимиз мумкин, бунда гимнастика баданимизни тозалаб чиниктиради”, деган эди.

X–XI асрларда ижод этган Абу Али Ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” китобида “Бадантарбия билан меъёрда ва мунтазам равишда шуғулланувчи кимса касалликларнинг даволанишига мухтож бўлмайди”, деган эди.

Бу ҳақиқатни янгидан–янги далиллар билан исботламоқда. Гапимизни тасдиқлаш учун қуйида юрак – қон томир тизимида оид бўлган айрим касаллик ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Кейинги йилларда 50 – 60 ёшга кирган ёки ундан ҳам ёш бўлган ҳали – бери куч ва ғайратга тўлган кишиларни даб – дурустдан қаттиқ касал бўлганлиги ёхуд оламдан ўтганлиги ҳақидаги хабарларни эшитиш мумкин.

Мисол тариқасида, бизнинг маҳалламизда истиқомат қилиб

келган Жалолиддин исмли мендан анчагина ёш бўлган кимсани эслатиб ўтиш мумкин. У умуман жисмоний машқлар билан шуғулланмай, кейинги йилларда анчагина семирман эди. Кунлардан бир куни “Наҳорги эл оши” маросимида ош тарқатилганда, у ош устидаги гўштни тўғраб турганида, бирданига шилқиллаб тушган. Буни кўрган атрофдаги кишилар ҳайрон бўлиб, унга ёрдам бермоқчи бўлганларида маълум бўлдики, бу одамнинг юраги тўхтаб, томир уришини аниқлаб бўлмаган. Тиббий экспертиза текширувининг натижаси шуни кўрсатдики, Жалолиддинда кенг қўламли юрак мушагининг нобуд бўлиши – инфаркт касаллиги юз берган экан. Унга яқин бўлган кишилар билан бўлган суҳбатдан маълум бўлишича, Жалолиддинни охириги пайтларда юрак соҳасидаги кетма – кет пайдо бўлаётган ва чап елкаси ҳамда чап кураги томонга тарқаладиган оғриклар безовта қилиб турган. Юрак мароми ҳам издан чиққан. Лекин шифокорга мурожаат қилмаган ва ўзича соғломман, деб юраверган.

Юқорида келтирилган маълумотларга асосланиб қуйидаги хулосага келиш мумкин:

Юрак мушаги инфарктининг профилактикаси мақсадида кундалик ҳаёт жараёнида жисмоний машқлар билан шуғулланиб туриш фойдадан ҳоли бўлмайди.

**Б.М. Саидов,**  
*Тиббиёт фанлари номзоди, катта илмий ходим.*

## BAHOR ILHOMI

## O'LKAM NAVRO'ZI

Yurtim ostonasi gulga ko'milgan,  
Gulgin chiroyingni ko'p kutdik jonim.  
Xush kelding loyiqsan qutlasam dildan  
Navro'zing muborak O'zbekistonim.

Pari ro'y keyingan bir qiz misoli,  
Bog'laring bezanmish biram iboli.  
Ko'nglingdan ketmasin ko'klam visoli,  
Navro'zing muborak O'zbekistonim

Abad shunday yashna ey gulistonim,  
Ko'klam baxtin tilay quvonib tanim.  
Sen otam, sen onam, sen singiljonim,  
Navro'zing muborak O'zbekistonim.

Elim ellar ichra misli bir malak,  
Sokin yo'llarimda o'yna kapalak.  
Ko'nglimdan to'kilmish eng toza tilak,  
Navro'zing muborak O'zbekistonim.

Oshiq Jamil kuyla shirin nafasli,  
Sevganing sochiga gul taq havasli.  
G'aflatda qolma do'st bu sevgi fasli,  
Navro'zing muborak O'zbekistonim.

*Jamil Nazarov,  
Agronomiya (kasbiy ta'lim) fakulteti  
3-01 guruh talabasi.*

## ZULFIYAXONIM

Gulday nozik lek buyuk qalb egasi,  
Oila qo'rg'onining sodiq bekasi.  
She'rlarida muhabbat va bahor nolasi  
Ijodga bag'ishladi, umrin va jonin,  
Vafo timsolisiz Zulfiyaxonim.

O'rik gulin jonli she'r qila olgan,  
Bahor faslin ruhlantirib, tashbehga solgan.  
She'rlari insonlar ko'nglida qolgan,  
Yorqin ma'budasi o'zbek ayolin,  
Sadoqat timsoli Zulfiyaxonim.

Nodira, Uvaysiylarning erur izdoshi,  
Qancha ayriliqlar ko'rmadi boshi.  
Yosh ijodkorlarning odil yo'ldoshi,  
Ibo-la zabt etdi insonlar qalbin,  
Vafo timsolisiz Zulfiyaxonim.

O'chmas iz qoldirdi, mangu qalblarda,  
She'rlari qolmadi quruq gaplarda .  
Jarangdor ovozi, bugun bizlarda,  
Ijodi jo'sh urar lohar qizlarda,  
Sadoqat timsoli Zulfiyaxonim.

*Matluba Sodiqova,  
Meva-sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti  
4-51 guruh talabasi.*

## ONAJONLAR BOR BO'LING

Erta turib, topmaydi tinim,  
Yuguradi mehnatda doim.  
Guldek nozik qalbi guloyim,  
Onajonlar bor bo'ling.

Baxtimizni o'ylaysiz mudom,  
Siz-la avlod etadi davom  
Qo'li ochiq duoga har on,  
Onajonlar bor bo'ling.

Yaratgandan umrlar so'rab,  
Yo'lingizga payonoz to'shab.  
Poyingizga ming ta'zim aylab,  
Onajonlar bor bo'ling.

*Javlonbek Otaqulov,  
Agronomiya fakulteti  
1-43 guruh talabasi.*

## BAHOR

Hush kelibsan yurtimga bahor,  
Ko'm -ko'k bo'lsin qir-u dalalar.  
O'tib ketdi qancha sovuq qor,  
Unib chiqsin endi lolalar.

Daraxtlar misoli kelinchak,  
Oppoq bo'lib qiyg'os gullasin.  
Seni kutib dillar kuyunchak,  
Qalbimizda armon bo'lmasin.

Samo uzra keng quloch yozib,  
Uchib ketgan turnalar qaytsin.  
Sozandalar sozini olib,  
Seni kuylab qo'shiqlar aytsin.

Quyosh zarrin nurlarin sohib,  
Maysazorlar yashnab yayrasin.  
So'ngra ko'kdan yomg'irlar yog'ib,  
Panalarda qushlar sayrasin.

Ayt, bunchalar go'zalsan bahor,  
Oy ham senga kulib boqqanmi?  
Ko'nglingdagi kirlarni ko'p bor,  
Yomg'irlaring yuvib oqqanmi?

Bizni tashlab ketmagin bahor,  
Har kun quvnab, o'ynab, kulaylik.  
Bizdan aslo bo'lmagin bezor,  
Diydoringa to'yib qolaylik.

*Hikmatilla Farmonov,  
Qishloq xo'jaligida menejment fakulteti  
4-bosqich talabasi.*

## E'LONLAR

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ АГРАР УНИВЕРСИТЕТИ БЎШ (ВАКАНТ) ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИ  
ЛАВОЗИМЛАРИГА МЕХНАТ ШАРТНОМАСИ АСОСИДА ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ**

**Кафедра муdiri:**

1. Ботаника ва агробиотехнология кафедраси; 2. Умумий техника фанлари ва ҳаёт фаолияти хавфсизлиги кафедраси; 3. Қишлоқ хўжалигида электр энергетика ва электротехнологиялар кафедраси; 4. Қишлоқ хўжалиги машиналари кафедраси; 5. Зоотехния кафедраси; 6. Ипакчилик ва тутчилик кафедраси; 6. Жисмоний маданият ва спорт кафедраси.

**Профессорлар:**

1. Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик кафедраси;

**Доцентлар:**

1. Агрокимё ва тупроқшунослик кафедраси (0,5); 2. Ўзбек тили, педагогика ва психология кафедраси; 3. Гуманитар фанлар кафедраси; 4. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки қайта ишлаш технологияси кафедраси; 5. Зоотехния кафедраси; 6. Ипакчилик ва тутчилик кафедраси; 7. Доривор ўсимликлар ва экология кафедраси (0,5); 8. Қ/х иқтисодиёти ва меркетинги кафедраси;

**Катта ўқитувчилар:**

1. Дехқончилик ва қ/х мелиорация асослари кафедраси (0,75); 2. Олий математика, физика ва кимё кафедраси; 3. Информатика ва ахборот технологиялари кафедраси; 4. Қ/х экинлари генетикаси, селекцияси ва уруғчилиги кафедраси;

**Ассистентлар:**

1. Ўсимликшунослик кафедраси (0,5); 2. Дехқончилик ва қ/х мелиорацияси кафедраси; 3. Ўзбек тили, педагогика ва психология кафедраси (0,5); 4. Қ/х экинлари генетикаси, селекцияси ва уруғчилиги кафедраси (0,25); 5. Ўсимликлар ҳимояси ва карантини кафедраси; 6. Ботаника ва агробиотехнология кафедраси; 7. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки қайта ишлаш технологияси кафедраси (0,25); 8. Олий математика, физика ва кимё кафедраси (0,5); 9. Қ/х машиналари кафедраси; 10. Қ/х техникаларидан фойдаланиш ва техник сервисни ташкил этиш кафедраси; 11. Зоотехния кафедраси (0,25); 12. Ипакчилик ва тутчилик кафедраси (0,5); 13. Ветеринария кафедраси (0,75); 14. Ўрмончилик ва ўрмон мелиорацияси кафедраси;

**Ўқитувчилар:**

1. Инглиз тили кафедраси; 2. Жисмоний тарбия кафедраси;

**Танлов учун ҳужжатлар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади.**

**Талаб қилинадиган ҳужжатлар:** Ректор номига ёзилган ариза, сўровнома, таржимаи ҳоли ва мазкур кафедрада ишлаш учун тегишли олий маълумоти ҳақидаги дипломи ва қатнашувчиларда илмий даража, илмий унвон, шунингдек илмий ишлар ва ихтиролар мавжуд бўлган тақдирда улар тегишли дипломлар, аттестатлар нусхаларини ва илмий ишлар рўйхатини, малака ошириш тўғрисидаги гувоҳномалар.

Танловга тушган барча ҳужжатлар олдиндан кафедра мажлисида кўриб чиқилади. Илгари кафедрада ишламаган шахсларнинг ҳужжатларини кўриб чиқишдан олдин улар томонидан синов лекциялари (университет профессор-ўқитувчилари учун – очик машғулотлар) ўтказилади. Синов лекциялари ва очик машғулотлар мавзулари кафедра предметлари бўйича ўқув дастури талабларига мувофиқ бўлиши керак. Танлов қатнашчиларини тест синовларидан ўтказишга йўл қўйилади.

Илгари ўзлари эгаллаб турган лавозим учун танловда қатнашувчи шахслар кафедра мажлисида танловдан олдинги даврдаги илмий-педагогик, методик, тарбиявий ва бошқа ишлари тўғрисида ҳисобот беради.

**Ҳужжатлар қуйидаги манзилга топширилади:**

100140, Тошкент-140, Тошкент давлат аграр университети, бош бино, 3-қават, Ходимлар бўлими.  
Телефон: 260-39-85.

**«AGRONOM»  
MUASSIS:  
Toshkent  
Davlat  
agrar  
universiteti**

Gazeta Toshkent viloyati  
Matbuot va axborot  
boshqarmasi tomonidan  
19.10.2010 y.  
№03-068 raqam  
bilan ro'yxatga olingan

ISSN raqami 2181-7782

Muharrir:  
D.I.ALIMKULOV.  
Tahrir hay'ati:  
A.A.ABDUVOSIQOV,  
M.M.ADILOV, F.ASHUROVA,  
D.XOLIQOVA, SH.DURXODJAYEV.

agronom\_gazetasi@mail.uz  
Tahririyat manzili: Toshkent vil.  
Qibray t. Universitet ko'chasi, 2 uy  
Gazeta TDAU Tahririyat-nashriyot bo'limida 500  
nuxxada chop etildi.



Bosishga  
topshirilgan vaqt  
28 mart 2016 yil.